



O‘QITUVCHI-O‘QUVCHILAR MULOQOTIDA PEDAGOGIK MAHORATNING AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: **Gulrux Xayrullayevna**

SamDChTI dotsenti v.b., f.f.f.d (PhD)

Qarshiyeva Zulfizar

SamDChTI Ingliz tili I fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogning o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlar o‘rnatishi, muloqot olib borishi katta mahoratni tashkil qilishi, shuningdek, darsning samarali olib borilishi va o‘quvchilarning dars jarayonini yaxshi o‘zlashtirishi, kommunikativligi, kasbiy bilim darajasini, psixik xususiyatlarini rivojlantirishda pedagogning yaxshi munosabat o‘rnata olishi va yetarlicha malakalari mavjud bo‘lishi kerakligi xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Pedagog, muloqot, mahorat, o‘quvchi, kommunikativlik, psixik xususiyatlar.

O‘quvchilar bilan yaxshi muomala qilish, muloqot olib borish o‘qituvchining mahoratini taqozo etadi. Bunda o‘qituvchi darsni samarali olib borishni, tushuntirish, suhbat olib borishi, fikrini yetkaza olish kabi usullaridan foydalanish jarayonida, avvalo, yaxshi muloqot, munosabatni yo‘lga qo‘yishi lozim [4]. Bundan tashqari, pedagogda yetarlicha malakalar bo‘lishi zarur, chunki o‘quvchining ba‘zi psixik xususiyatlarini (nutqi, fikrlashi, xotirasini) ularning tarbiyasi qanaqaligini aniqlash, ulardagi yangi muhitga o‘tishda



bo'ladigan qiyinchiliklarini oldindan hisobga olish, ulardagi psixik o'zgarish va rivojlanishlarni, fikrlarini bilgan holda munosabat qilish katta tajriba talab qiladi.

Shunga ko'ra, pedagoglar iqtidorli o'quvchilar bilan to'g'ri ishlashni va ularning qiziqishlarini yetarlicha baholay olishi zarur. Bu borada pedagogning o'quvchilari bilan qiladigan muomala-munosabati kattadir. Bola uchun o'qituvchi uning psixologik holatini bilimini shakllantirib beradigan inson sifatida asosiy rol o'ynaydi va bu holat uning tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga bu munosabat esa o'z-o'zidan oilasidagi munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatadi [5]. Shuningdek, bu munosabatlar uning o'quv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi. Yirik chet el va sobiq sovet psixologlari (J.Piaje, A.Vallon, J.Bruner, L.V.Zankov, D.B.Elkonin, P.Ya.Galperin, N.A.Menchiskaya, V.V.Davidov, A.Sh.Amonashivili, S.F.Juykov va boshqalar) tadqiqotlarining ko'rsatishicha, oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalar tafakkurini jadal sur'atlar bilan rivojlantiradi, aqliy imkoniyatlarini ertaroq ishga tushishga, ro'yobga chiqishga yordam beradi. Chunonchi, bolalar matematik, fizik, lingvistik, politexnik tushunchalarini o'zlashtiradilar, mustaqil ravishda uncha murakkab bo'lmagan masalalar, misollar tuzadilar, oddiyroq mashqlarni bajara oladilar, ijodiy va mahsuldor fikr yuritishga intiladilar [1;113]. Yuqorida yuritilgan mulohazalarga asoslangan holda, ta'lim va dars jarayoni yaxshi bo'lsa o'quvchida mustaqil intilish, predmetlarga qiziqishi, ishtiyoqi o'qishga bo'lgan xohishi odamlar bilan munosabatga kirishish istagi kuchayadi. O'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va ularga nisbatan o'rnatiladigan munosabatlarning uslublari mavjud.

1.Avtoritar uslub.

Bu boshqaruv uslubida pedagog yakka holatida guruh faoliyat yo'nalishishini belgilab ko'rsatma-buyruqlar beradi, javobgarliklarni o'z bo'yniga oladi, kuchli tartibni talab qiladi va o'ziga so'zsiz bo'ysunishini istaydi va gap o'rgatganlarni yomon ko'radi. Avtoritar uslubdagi pedagog muomalasi qo'pol, qattiq, qo'rqitadigan va aytilgan vazifani



to'liq bajarilishini talab qiladi. Darsda faol qatnashgan bolalarni taqdirlasa, maqtasa ham bu buyruqdek chiqadi va bunda o'quvchida qiziqish yo'qolishi mumkin. Odatda, biron masalani tushuntirmagan bo'lsa ham talab qiladi. Munosabatning bu uslubda boshqarilishi atrofdagilar uchun qiyin kechadi. Bu uslub o'qituvchini sinfdan, o'quvchidan uzoqlashtiradi va o'qish jarayonida mummolar keltirib chiqaradi. O'zida ishonch yetishmasligi tufayli sinfda intizomli o'quvchida yakkalanish, xavotirlik, himoya qilinmaganlik hissini ham yuzaga keltirib chiqaradi. Bu uslub sinfda yuqori o'zlashtirish, asosan, xotira sababli bo'lib, lekin mustaqil fikr yuritish, ijodkorlik, hozirjavoblik kabi xususiyatlari rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo'lishi mumkin va unda doimiy xavotirlik o'ziga nisbatan ishonchsizlikni yuzaga keltiradi. Avtoritar uslubdagi pedagogning o'quvchilari pedagog sinfdan chiqib ketgan vaqtlarda o'z-o'zini boshqarish malakasi bo'lmaganligi uchun ham darrov shovqin solishadi. Bu, asosan, to'polonda namoyon bo'ladi. Bu uslub o'qituvchining mustahkam irodasini ko'rsatadi, lekin bu uslub o'quvchilarda qo'rquv hissini uyg'otadi va ularda erkinlik, erkin fikrini bildirish shakllanmay qoladi, natijada o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati orqada qoladi o'zini chetga ola boshlaydi va insonlar bilan kirisha olmaslik shakllanadi, chunki ularda hozir gapim noo'rin bo'lsa urush eshitishim mumkin degan tushuncha paydo bo'ladi. Avtoritar uslubdan foydalangan pedagoglarning talabchanligi, qat'iyliligi o'quvchilarda darslarni vaqtida bajarishga ishtiyoq yaratadi, lekin o'z xohishlari bilan emas, balki o'qituvchining qattiqqo'lligi, qo'rqqanligi uchun o'qishadi.

2. Demokratik uslub.

Bu uslubda o'qituvchi jamoa fikrlarini e'tiborga oladi, samimiy muomala qiladi, muloqotga kirishganida qo'lidan kelgancha maslahat beradi, o'z ustida ishlaydi va o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga va xulq-atvorining shakllanishiga yordam beradi. O'quvchilarning fikrini eshitadi va fikriga tayanib ish olib borishi ham mumkin. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilishiga asos bo'ladi. Darsdagi intizom majburiy bo'lmaydi, balki ularda o'ziga ishonch, o'z muvaffaqiyatlaridan, yutuqlaridan



quvonishi, do'stlari bilan o'rganish, fikrlar almashish hamkorlik hissini rivojlantiradi. Demokratik uslub bolalarni birlashtirishga, insonlar bilan yaxshi aloqada bo'lishga katta yordam beradi. Har bir ishga mas'uliyat bilan yondoshish hissi o'qituvchining shu yoshdagi bolalar bilan demokratik muomala munosabati asosidagina shakllanadi.

3. Liberal uslub.

Bu uslubda pedagoglar tashabbussiz, jamoa ishiga aralashmaydigan, vazifalarga yuzaki qarab chiqadigan bo'ladi. O'z fikriga ega bo'lmasligi, darsni tushuntirish, sinfni boshqarish xususiyati bo'lmaganligi sababli, o'quvchilarda darsga qiziqish bo'lmaydi. Yana boshqa xususiyatlari mas'uliyatlardan o'zini olib qochadi, odatda, natijalarga ham e'tibor bermaydi. Bundan tashqari, o'quvchilarga nisbatan e'tiborsiz, beg'am hatto o'z ishiga ham sovuqqon bo'ladi.

Muomala munosabatidagi bolalar shaxsini shakllantirishda va tarbiyalash jarayonida liberal uslubdan foydalanib bo'lmaydi.

Ilmiy –pedagogik adabiyotlarda quyidagi munosabat turlari ko'rsatilgan:[2]

- hamkorlikdagi munosabat;
- bevosita munosabat;
- do'stona munosabat;
- nosamimiy munosabat;
- oraliqdagi munosabat;
- bekorchi munosabat;
- qo'rquv orqali munosabat;
- dialog va monolog.



Shu bilan birga, nemis olimi A.Disterveg ham pedagoglik sohasida samarali ish olib borgan. A.Disterveg: "Har qanday ta'lim va tarbiyada eng asosiy omil-muallim, uning tafakkur dunyosidir",- deya fikr yuritadi[4]. Distervegning haqqoniy ravishda ta'kidlashicha, muvaffaqiyatli ta'lim hamisha tarbiyalovchi xarakterda bo'ladi. Bunday ta'lim o'quvchi-talabalarning aqliy kuchlarinigina o'stirib qolmay, balki uning shaxsini, irodasini, sezgilarini, xulq-atvorini ham kamol toptiradi [6]. Darhaqiqat, pedagog o'quvchilarga ta'lim berish bilan birga tarbiya ham beradi. Tarbiya ularning o'rganish jarayonida juda muhim o'rin tutadi, chunki tarbiyasi yaxshi o'quvchilar muvaffaqiyatlarga erishadi, jamiyatda o'z o'rnini topa oladi.

Pedagog o'quvchilar bilan, nafaqat yaxshi, do'stona muomalada bo'lish kerak, balki o'qitish chog'ida o'quvchi-talabalarning tashabbuskorligini o'stirish, ularni bilimlar bilan qurollantirish o'qituvchi rahbarlik rolini o'ynagandagina mumkin bo'ladigan ishdir. Shuningdek, Disterveg ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi oqibat natijasida darslik yoki metodga emas, balki o'qituvchiga bog'liq, deb ta'kidlaydi[5]. Uning fikricha, yaxshi pedagog o'z fanini mukammal egallab olgan bo'lishi hamda o'z kasbini va bolalarni sevishi kerak. Dars jarayonini sevgan pedagoglar astoydil, chin dildan dars o'tadilar. Dars chog'ida hamma ta'lim oluvchilar tetik bo'lib turishi, o'qituvchi g'ayrat bilan dars berib, o'quvchi-talabalarning aqliy kuchini uyg'otishi, ularning irodasini mustahkamlashi, ularning xarakterini tarkib toptirishi kerak. O'qituvchi muomala munosabatida qattiqqo'l va talabchan bo'lish bilan birga adolatli bo'lishi ham kerak, faqat shundagina yaxshi natijaga erisha oladi. Bundan tashqari, A.Disterveg pedagogga nisbatan: "o'quvchini mehnat qilishga o'rgat, uni nafaqat mehnatni sevishga, u bilan shunday uyg'unlashishga ko'niktirginki, toki mehnat uning vujudiga singib ketsin uni shunga o'rgatki, uning uchun o'z kuchi bilan biron-bir narsani bilib ololmaslik aqlga sig'maydigan holat hisoblansin; u mustaqil o'ylamog'i, izlamog'i, o'zini ko'rsatmog'i, o'zining uyg'onmagan qobiliyatlarini rivojlantirmog'i, o'zini sobitli inson qilib yetishtirmog'i lozim",-deb ta'kidlaydi.[3]



Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, pedagogning o'quvchilar bilan yaxshi munosabat o'rnatish, ularga kerakli bilimni yetkazib bera olishi va ularning xotirasini, bilish jarayonlarini, xatti-harakatlarini rivojlantirish uchun ular bilan demokratik aloqa o'rnatishi o'zidagi malaka-ko'nikma mahoratini namoyon qila olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi/darslik/. Toshkent: "NIF MSH", 2020.
2. Polvonnazir Masharipovich Saparov, Sarvar Bahrom o'g'li Otayev. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot. Scientific progress. Volume issue 8 2021 ISSN: 2181-1601
3. G'ayratova R., Odina Erkabayeva. Zamonaviy tarix fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar. Academic research in educational sciences. Volume issue 3 2020 ISSN: 2181-1385
4. Khasanova G. The effect of mimics and vision in teacher-student communication. International Scientific and Current Research Conferences, 2021. 1 (1), 61–64
5. Sharipova S. The role of coaching technology in the development of creative thinking and abilities of adults in language learning process. Solution of social problems in management and economy. International scientific-online conference. 2023.
6. Xasanova G., Sharipova R. Xorijiy tillarni o'qitish va o'rganishda ijtimoiy tarmoqlarning roli. Лучшие интеллектуальные исследования. ISSN 3030 -3680. Часть-17. Том-4. Март -2024.
7. . <https://hikmatlar.uz>
8. <https://abiturtest.uz>